

MADANIY MEROS VA MADANIY TURIZM SHAROITIDA MADANIY MEROSNI ASRASH MEXANIZMLARI

Shaxzoda Ulashova

Buxoro Davlat Universiteti

shaxzodaulashova5@gmail.com

Ilmiy rahbar: Xidirova Gavhar Rustamovna

Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya. *Ushbu maqolada madaniy turizm rivojlanayotgan sharoitda madaniy meros obyektlarini asrash masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida madaniy merosni muhofaza qilishning huquqiy, institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarining mazmuni ochib berilgan hamda ularning turizm faoliyati bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, xorijiy va milliy tajriba asosida madaniy merosni barqaror asrash va undan samarali foydalanish yo‘llari aniqlangan. Tadqiqot natijalari madaniy turizmni rivojlantirish jarayonida madaniy merosni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi*

Kalit so‘zlar. *madaniy meros, tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, qadriyatlar, konservatsiya, merosni saqlash, madaniy qadriyatlar, turizm va meros, arxeologiya, mahalliy an‘analari.*

Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonlari sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, madaniy turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki xalqlarning tarixiy xotirasi, madaniy qadriyatlari va milliy o‘zligini saqlashda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda. Madaniy turizm orqali tarixiy obidalar, me’moriy yodgorliklar, urf-odatlar, an‘analari va nomoddiy madaniy meros keng jamoatchilikka taqdim etiladi hamda ularning ommalashuvi ta’minlanadi. Shu bilan birga, madaniy turizmning jadal rivojlanishi madaniy meros obyektlariga bo‘lgan antropogen bosimni kuchaytirib, ularni asrash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantirmoqda. Turistlar oqimining ortishi natijasida tarixiy obidalarining jismoniy yemirilishi, ekologik muhitning buzilishi, madaniy qadriyatlarning tijoratlashuvi va asl mohiyatining yo‘qolishi kabi salbiy holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bu esa madaniy merosni muhofaza qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Madaniy meros tushunchasi keng mazmunga ega bo‘lib, u moddiy va nomoddiy shakllarda namoyon bo‘ladi. Moddiy madaniy merosga tarixiy binolar, me’moriy yodgorliklar, arxeologik obyektlar, muzey ekspozitsiyalari kirsa, nomoddiy madaniy merosga xalq og‘zaki ijodi, an‘analari, marosimlar, milliy bayramlar va hunarmandchilik an‘analari kiradi. Ushbu meros obyektlari jamiyatning tarixiy taraqqiyoti va madaniy rivojlanishini aks ettirib, milliy o‘zlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajribada madaniy merosni asrash masalalariga alohida e’tibor qaratilib, UNESCO kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan turli konvensiyalar va dasturlar ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlarda madaniy merosni muhofaza qilishda barqaror rivojlanish tamoyillariga amal

qilish, mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish hamda turizm faoliyati bilan uyg‘unlashgan boshqaruv tizimini joriy etish zarurligi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv madaniy meros obyektlarining uzoq muddatli saqlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasi ham boy madaniy-tarixiy merosga ega mamlakatlardan biri bo‘lib, uning hududida ko‘plab tarixiy shaharlar, me’moriy yodgorliklar va madaniy obyektlar joylashgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi shaharlar jahon miqyosida tan olingan madaniy turizm markazlari hisoblanadi. Ushbu obyektlardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, ularni asrash va muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Madaniy turizm va madaniy merosni asrash masalalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda madaniy merosni uzoq muddatli saqlashda ilmiy-amaliy yondashuvlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Xususan, MDPI nashriyotining Heritage jurnalida chop etilgan tadqiqotlarda madaniy merosni asrashda strategik rejalashtirish, monitoring va barqarorlik tamoyillariga asoslangan mexanizmlarning muhimligi asoslab berilgan. Ushbu yondashuv madaniy obyektlarning uzoq muddatli saqlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Globalizatsiya jarayonlari madaniy merosga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Edwin Hazie tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda globallashuv sharoitida madaniy merosni saqlash muammolari chuqur tahlil qilinib, madaniy obyektlarning tijoratlashuvi va asl qadriyatlarining yo‘qolib borishi asosiy xavf omillari sifatida ko‘rsatiladi.³⁰ Muallif madaniy turizmni rivojlantirish jarayonida muhofaza va foydalanish o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda madaniy merosni asrashda jamoatchilik ishtirokining o‘rni ham muhim omil sifatida baholanmoqda. Ismaeli Muhammad Amin va hamkorlarining ilmiy ishlarida madaniy merosni saqlashda mahalliy aholi ishtirokiga asoslangan yangi paradigma ilgari surilgan³¹ Tadqiqotchilar jamoatchilikni jarayonga faol jalb etish madaniy merosning ijtimoiy ahamiyatini oshirish bilan birga, uning barqarorligini ta’minlashini ilmiy asoslab berganlar. Shuningdek, madaniy merosni saqlash bo‘yicha global strategiyalar masalasi ham qator ilmiy ishlarda ko‘rib chiqilgan. West Sciences Social and Humanities Studies jurnalida e’lon qilingan tadqiqotlarda globallashgan dunyoda madaniy merosni saqlash strategiyalari tahlil qilinib, xalqaro hamkorlik, normativ-huquqiy mexanizmlar va institutsional boshqaruv tizimlarining ahamiyati ochib qadriyat sifatida saqlash zarurligini ko‘rsatadi³²ⁱ

Yevropa tajribasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda esa madaniy merosni muhofaza qilishda ishtirokchilik va hamkorlik modeli ilgari suriladi. European Journal of Cultural Management and Policy jurnalida chop etilgan ilmiy ishda madaniy merosni saqlash jarayonida davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoalar o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari


³⁰ Hazie E. Cultural heritage preservation in the face of globalization. — International Journal of Humanities and Social Sciences, 2024, №3(3), pp. 4–14.

³¹ Ismaeli M. A., Siti A., Sulaeyanto B. Cultural heritage preservation through community engagement: A new paradigm for social sustainability. — Indonesian Journal of Studies on Humanities, Social Sciences and Education, 2020, Vol. 1(2), pp. 50–59.

³² Abror H., Adil M. A., Yenik Pujowati. Cultural preservation in a globalized world: Strategies for sustaining heritage. — West Sciences Social and Humanities Studies, 2023, №1(03), pp. 98–106.

samarali model sifatida baholangan³³. Ushbu yondashuv madaniy turizmni rivojlantirish bilan bir qatorda, meros obyektlarini muhofaza qilish imkonini beradi. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, madaniy turizm sharoitida madaniy merosni asrash masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy manbalarda huquqiy, institutsional, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarning uyg‘unlashuvi madaniy merosni samarali saqlashning asosiy sharti sifatida e’tirof etiladi. Ushbu tadqiqotlar mazkur maqolada olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Madaniy merosni saqlash masalasi bugungi kunda nafaqat milliy darajada, balki xalqaro ilmiy doiralarda ham dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan huquqiy, institutsional, ijtimoiy-iqtisodiy hamda turizm bilan integratsiyalashgan yondashuvlar asosida tahlil qilingan.



Xalqaro miqyosda YuNESKO tomonidan ishlab chiqilgan konvensiyalar madaniy merosni muhofaza qilishning asosiy normativ-huquqiy bazasini shakllantirgan. Jumladan, 1972-yildagi “Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya meros obyektlarini saqlash, restavratsiya qilinishi va aularni kelajak avlodlarga yetkazishning fundamental tamoyillarini belgilab berdi³⁴. Mazkur hujjat ko‘plab olimlar tomonidan madaniy merosni boshqarish tizimini shakllantirishda asosiy manba sifatida e’tirof etiladi. Bir qator xorijiy tadqiqotchilar (T. Mason, G. Ashworth, J. Tunbridge) o‘z ilmiy ishlarida madaniy merosni saqlash va undan barqaror foydalanish masalalarini turizm bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqadilar³⁵. Ularning fikricha, madaniy meros obyektlarini faqat saqlash emas, balki to‘g‘ri boshqarish orqali hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga xizmat qildirish mumkin. Ayniqsa, “heritage management” va “sustainable tourism” tushunchalari zamonaviy ilmiy yondashuvlarning markazida turadi. Mahalliy olimlar tadqiqotlarida esa madaniy merosni asrash masalalari milliy qonunchilik, davlat siyosati va institutsional mexanizmlar doirasida tahlil qilingan. O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Madaniy

³³ Smith L. Conservation of the cultural heritage: From participation to collaboration. — European Journal of Cultural Management and Policy, 2015, Vol. 5(1), pp. 43–53

³⁴ UNESCO. Convention Concerning the Protection of the World Cultural and Natural Heritage. Paris, 1972.

³⁵ . Ashworth G.J., Tunbridge J.E. The Tourist-Historic City. London: Routledge, 2000.v

meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun, shuningdek, davlat dasturlari mazkur sohada muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda³⁶. Mahalliy tadqiqotlarda tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, ularni turizmga jalb etish va mahalliy aholi manfaatlari bilan uyg‘unlashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Timothy va Boyd ilmiy ishlarida madaniy turizm sharoitida meros obyektlaridan foydalanish jarayonida ularni muhofaza qilish tamoyillari ishlab chiqilgan³⁷. Ularning fikricha, madaniy merosni asrash faqat davlat organlari zimmasidagi vazifa bo‘lib qolmasdan, mahalliy aholi va xususiy sektor ishtirokini ham talab qiladi. Mazkur tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali madaniy turizm va madaniy meros o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik o‘rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy va milliy tajriba solishtirildi. Shuningdek, statistik ma’lumotlar tahlili, huquqiy hujjatlarni o‘rganish va ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Ushbu metodlar madaniy merosni asrash mexanizmlarining samaradorligini aniqlash imkonini berdi. O‘zbekiston Respublikasida madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish masalalari davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunda madaniy meros obyektlarini asrash, restavratsiya qilish, ulardan foydalanish hamda ularning saqlanishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish mexanizmlari belgilab berilgan³⁸. Mazkur hujjatda madaniy merosni muhofaza qilishda vakolatli organlarning vazifalari, mulkchilik shaklidan qat’i nazar, meros obyektlaridan foydalanish tartibi va javobgarlik masalalari huquqiy jihatdan asoslab berilgan. Ushbu qonun madaniy turizm sharoitida madaniy meros obyektlaridan foydalanishda muhofaza va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash uchun muhim normativ asos bo‘lib xizmat qiladi.

1-Jadval.

Madaniy turizm sharoitida madaniy merosni asrash mexanizmlari.

Mexanizm turi	Mazmuni	Turizm bilan bog‘liqligi	Misollar
Huquqiy	Qonunlar, konvensiyalar, normativ hujjatlar	Meros obyektlaridan foydalanishni tartibga soladi	Qonunlar, UNESCO konvensiyalar
Institutsional	Davlat organlari, UNESCO, mahalliy boshqaruv	Nazorat va muvofiqlashtirish	Madaniyat vazirligi, mahalliy boshqaruv
iqtisodiy	Grantlar, subsidiyalar, turizm daromadi	Restavratsiya va saqlash manbai	Turizm fondlari, davlat grantlari
Ijtimoiy	Aholi ishtiroki,	Barqaror truzimni	Mahalliy

³⁶ O‘zbekiston Respublikasi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.

³⁷ Timothy D. J., Boyd S. W. Heritage Tourism. — Harlow: Pearson Education, 2003.

³⁸ O‘zbekiston Respublikasi. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi Qonun. — Toshkent, 2009 (so‘nggi tahrirlar bilan).

	madaniy ong	ta’minlaydi	festivallar, aholi ta’limi
--	-------------	-------------	----------------------------

Xulosa qilib aytganda, madaniy turizm sharoitida madaniy merosni asrash masalasi kompleks yondashuvni talab etadi. Huquqiy, institutsional, iqtisodiy va ijtimoiy mexanizmlarning uyg‘unlashuvi madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Madaniy turizmni rivojlantirish jarayonida barqarorlik tamoyillariga amal qilish, mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish va xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv madaniy merosni kelajak avlodlarga yetkazish bilan birga, turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ashworth, G. J., & Tunbridge, J. E. (2000). The tourist-historic city: Retrospect and prospect of managing the heritage city. Oxford, UK: Pergamon Press.
2. Boniface, P., & Fowler, P. J. (1993). Heritage and tourism in “the global village”. London, UK: Routledge.
3. Garrod, B., & Fyall, A. (2000). Managing heritage tourism. Annals of Tourism Research, 27(3), 682–708. [https://doi.org/10.1016/S0160-7383\(99\)00094-8](https://doi.org/10.1016/S0160-7383(99)00094-8)
4. Hall, C. M., & McArthur, S. (1998). Integrated heritage management: Principles and practice. London, UK: Stationery Office.
5. Inskeep, E. (1991). Tourism planning: An integrated and sustainable development approach. New York, NY: Van Nostrand Reinhold.
6. Pedersen, A. (2002). Managing tourism at World Heritage Sites: A practical manual for World Heritage site managers. Paris, France: UNESCO World Heritage Centre.
7. Timothy, D. J., & Boyd, S. W. (2003). Heritage tourism. Harlow, UK: Pearson Education.
8. UNESCO. (1972). Convention concerning the protection of the world cultural and natural heritage. Paris, France: UNESCO.
9. UNESCO. (2013). Sustainable tourism development in UNESCO designated sites. Paris, France: UNESCO Publishing.
10. Smith, L. (2006). Uses of heritage. London, UK: Routledge.